



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKOLOGIYA VA ATROF-MUHITNI
MUHOFAZA QILISH DAVLAT QO'MITASI
SURXONDARYO VILOYATI EKOLOGIYA VA ATROF-MUHITNI
MUHOFAZA QILISH BOSHQARMASI**

190104, Termiz sh., A.Temur ko'chasi, 69-uy. tel.: 221-44-79, faks: 221-42-07
elektron manzil: surxon@uznature.uz, surxon.eko@exat.uz

2022 - yil "28" iyul 01-19/01-629-son

Termiz sh.

**Davlat ekologik ekspertizasi
X U L O S A S I**

**Termiz shahar
"SALOVAT SIFAT LOYIHA"
mas'uliyati cheklangan jamiyati
direktori
X.T.Babalovga**

Nusxasi: Sariosiyo tuman Ekologiya va atrof
muhitni muhofaza qilish bo'limiga

Ob'ekt: Surxondaryo viloyat Sariosiyo tumani "Lutfikor" mahallasi hududida tashkil etilgan Yangi O'zbekiston massivi ichki oqova suv kanalizatsiya va oqova suv tozalash inshooti qurilishining Atrof muxitga ta'siri to'g'risidagi bayonot loyixasi

INN: 302575841;

Buyurtmachi: "SALOVAT SIFAT LOYIHA" MChJ

Loyixachi: "Eko Termiz loyiha" mas'uliyati cheklangan jamiyati

Asos: V.M 07.09.2020 yildagi 541-sonli qarori bilan tasdiqlangan ilovasiga muvofiq III-toifaga mansub (7-bandi)

Ekspert: Abdullaev T.X

Surxondaryo viloyati Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasi Davlat ekologik ekspertizasiga Sariosiyo tumani "Lutfikor" mahallasi hududida tashkil etilgan Yangi O'zbekiston massivi ichki oqova suv kanalizatsiya va oqova suv tozalash inshooti qurilishining Atrof muxitga ta'siri to'g'risidagi bayonot loyixasi O'zbekiston Respublikasi «Ekologik ekspertiza to'g'risida»gi konuniga hamda Vazirlar Maxkamasining 07.09.2020 yildagi №541-sonli karori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasida Davlat Ekologik ekspertiza to'g'risida»gi Nizom talablari va amaldagi me'yoriy qo'llanmalari asosida o'rganib chikilib kuyidagilarni ma'lum kiladi.

Takdim etilgan loyiha xujjatlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 noyabrdagi "Yangi O'zbekiston" massivlarini qurish va hududlarning ijtimoiy-iktisodiy rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risidagi 2021 yil 9 dekabrdagi PF-32 sonli

farmoyishi asosida Sariosiyo tumani "Lutfikor" mahallasi hududida tashkil etilgan Yangi O'zbekiston massivi ichki oqova suv kanalizatsiya va oqova suv tozalash inшоati qurilishi rejalashtirilgan bolib Surxondaryo viloyat Hokimining 22.07.2022.yildagi 427-8-0-Q/22-sonli qarori taqdim etilgan.

Sariosiyo tumani Lutfikor MFY hududida tashkil etilayotgan yangi O'zbekiston massivi aholi turar uy joylari ob'ektlari uchun Ø-315 mmli 3 km oqova suv quvuri hamda Ø-500 mm suv quvuri tortish yagidan kuzatuv qudug'i o'rtish, 1000 m³ xajmli lokal tozalash inшоati qurish, 315 mmli 3 km va 500 mmli 7km suv quvuri o'tkazish, suv ta'minoti va elektr energiya suv oqova suvlarni tozalash inшоati xo'jalik va maishiy oqovalarni tozalashga mo'ljallangan 1000 m³/sut quvvatda ishlaydigan tomonidan ishlab chiqilgan mahalliy tozalash inшоati qurilishi ko'zda tutilgan bo'lib, qurilish ishlari uchun tuman Yangi Uzbekiston massivi xududier maydonida barcha qurilmalar 12,7ga yer moydoni ichida joylashtirish ko'zda tutilganligi loyihada qayd etilgan.

Tanlangan yer maydoni xolati yuzasidan Sariosiyo tuman Ekalogiya va atrof muhitni muhofaza qilish bo'limi tomonidan 05.05.2022 yilda monitoring kuzatuvi utkazilgan bo'lib, suv tizimi o'tkazilishi xalaqit beruvchi daraxtlar mavjud emasligi bayon etilgan.

Jarqo'rg'on tumani Qorayontoq MFY hududida tashkil etilayotgan "Yangi O'zbekiston massividan qurilishi rejalashtirilayotgan tozalash inшоati joylashuv **o'rni-biologik** tozalash inшоati yer maydoni kordinati: 1. 38°21'44.98"S 67°58'39.20"V; 2. 38°21'44.90"S 67°58'40.81"V; 3. 38°21'42.82"S 67°58'41.00"V; 4. 38°21'43.15"S 67°58'39.38"V yer maydonida joylashagan.

Ob'ektning hududi quyidagicha chegaralangan:

Shimoldan - Shimoldan M-4l avtomobil yuli bilan.

Sharqdan - Fermer xo'jaligi yer maydoni bilan.

Janubdan - Fermer xo'jaligi yer maydoni bilan.

G'arbdan - Yangi qurilgan ko'p qavatli uylar bilan tutashgan.

Sariosiyo tumani Lutfikor MFY xududida tashkil etilayotgan yangi O'zbekiston massivi uchun oqovalarni qabul qilish va tozalash uchun Tozalash inшоati qurilish yer maydoni hududiy joylashishi bo'yicha quyidagicha chegaralanadi:

Shimoldan – Uzun Davlat o'rmon xo'jaligiga qarashli ochiq yer maydoni bilan.

Sharqdan - Uzun Davlat o'rmon xo'jaligi yer maydoni bilan so'ng aholi turar uy joylari bilan-250 metr

Janubdan - Uzun Davlat o'rmon xo'jaligiga qarashli ochiq yer maydoni bilan.

Garbdan – Uzun Davlat o'rmon xo'jaligiga qarashli ochiq yer maydoni so'ngra

To'palang daryosi bilan 250met.

Sariosiyo tumani "Lutfikor" mahallasi hududida tashkil etilgan Yangi O'zbekiston massivi ichki oqova suv kanalizatsiya va oqova suv tozalash inшоati qurilishi rejalashtirilgan tozalash inшоatqishloq xo'jaligida foydalanishda bo'lmagan bo'sh yer maydonida amalga oshirilishi ko'zda tutilgan bo'lib, 3000 m³ /sut quvvatda ishlaydigan mahalliy biologik tozalash inшоati qurilmasi o'rnatish tuman Yangi O'zbekiston massivi hududida hosil bo'ladigan oqovalarni tozalash va tozalashgan oqovalarni to'liq tozalab zararsizlantirish va so'ngra ob'ektga yaqin bo'lgan Selga quyilib unda bioprud sifatida tindirilib so'ng To'palang daryosiga okizilishi loyihada qayd etilgan.

Oqova suv biologik tozalash inшоatiga oqova suvlarni ko'tarib beruvchi Nasos stansiyasining pastki qismida joylashgan nasosga kirib ketishining oldini olish uchun katta axlatni saklaydigan savat, savatni bo'shatish uchun va ichidagi nasosning texnik xizmatiga yuqori qismida joylashgan lyuk orqali kirish mumkin. **KNS.** Nasosni olib tashlash uchun

zanjir va trubka ta'minlangan va pastga tushish uchun stansiya qudug'i zinapoya va xizmat ko'rsatish platformasi mavjud asoslar avtomatik rejimda ishlaydi. Nasos stansiyasi ishlaganda stantsiyalar 1 ishchi va 1 kutish rejimida barcha nasoslar nasos stantsiyasiga urnatiladi va ularning xar biri nasos stansiyasining maksimal soatlik unumdorligi uchun muljallangan. nasos stansiyasi uchta rejimda ishlaydi:

1. Loyixalash yuki - nasoslar, navbatma-navbat okib keladigan loyka va nanosslarni chikarib tashlaydi drenajlar.

2. Tepalik lyuk - kiruvchi drenaj mikdori paydo bulganda bitta nasosning kuvvatidan oshib ketadi. Stansiyanı xovuzalrı maksimal xolatga tuldirishda

Ikkinchi nasos kushimcha ravishda yokilib, unumdorlikni oshiradi

3. Favkulodda vaziyat - stansiyanı favkulodda vaziyat darajasiga tuldirganda, yoruglik va ovoqli signal yokiladi. Xaddan tashkari toshib ketish sabab bulishi mumkin nasoslarning yopilishi, chikadigan okava suvlar xajmining kupayishi yoki boshka sabablar. KNSni kabul kilish idishi lyuklar va xizmat kursatish uchun narvon bilan jixozlangan kompakt rezervuarda joylashgan uskunalar o'rnatilishi va ishlash jarayoni tartibi loyihada to'liq qayd etilgan.

Loyihada ob'ekt joylashgan mintaqaning gidrogeologik, meliorativ va iqlim sharoitlari hamda atrof-muhitning hozirgi holati to'risida ma'lumotlar berilgan.

Qazish va tekislash ishlari ekskavatorlar yordamida qayta ko'mish va tuproqni tekislash ishlari amalga oshirish, qurilish materiallarini avtotexnikalarda olib kelish ko'zda tutilgan.

Ob'ektda atmosfera havosini ifloslantiruvchi manbalar bo'lib, avtotransportlarni xarakatlanishi natijasida dvigatellaridan va mexanizmlar ish jarayonida chang va gazlar ajralib chiqishi hisoblab chiqilgan.

Neorganik chang-25,172tn/yil, uglerod oksidi-5,0805 t/yilni, azot dioksidi 2,032 t/yil, uglevodorod -1,524t/yil, tutun-0,762 t/yil, oltingugurt gazi -1,016 t/yil, benzoprin-0,000000162t/yil, miqdorda tashkil etishi hisobga olingan.

Ob'ektning maishiy va ichimlik suv sarfi umumiy miqdori 12 nafar ishchi xizmatchi 102 kun davomida jami 18,36 m³/yilni tashkil etadi. Ob'ekt faoliyatida hamma vaqt suv ta'minoti mavjud bo'lmaganligi uchun chiqindi oqovalar hosil qiluvchi manba mavjud emas.

Sariosiyo tumani Lutfikor MFY hududida tashkil etilayotgan yangi O'zbekiston massivida jami toza ichimlik suv sarfi mikdori ichimlik va maishiy maksadlar uchun 3686,4 m³/yil suv sarflanishi, yangi O'zbekiston massivi aholi turar uy joylari uchun suv sarfi aholi jon boshidan kelib chiqib suv sarfi aniklanishi, yer usti sug'orish tarmoqlaridan prognoz ko'rsatgichidagi suv sarfi mikdori yiliga 10800 m³/yilni tashkil etishi loyihada qayd etilgan bo'lib, massivida sarflanadigan suv sarfi bir kunlik mikdorining 80% okova sifatida hosil bo'lib 1000 m³/sut kuvatda ishlaydigan biologik mahalliy tozalash inshoati uzluksiz ishlash ta'minlanishi kuzda tutiladi., ya'ni $10,24 \times 80\% = 8,192$ m³/yilni tashkil etishi hosil bo'ladigan yangi O'zbekiston massivi aholi turar uy joylari va savdo va maishiy xizmat ursatish nutqtalari va ishlab chiqarish ob'ektlari ish faoliyatida okova suvlar tozalash inshoatida tozalanib so'ng quvurlar yordamida selgaga so'ng unda tindirilgan oqova To'palang daryosiga okizilishi ta'minlanishi ko'zda tutilgan.

Ob'ektning qurilish faoliyatida hosil bo'ladigan xavflilik darajasi 5-sinfga tegishli maishiy chiqindilar 48,51 t/yil miqdorini tashkil etib alohida idishlarda saqlanishi "Toza Hudud" DUK tomonidan tuman chiqindixonaga chiqarilishi bayon etilgan.

Ob'ekt faoliyatida avtotexnikalarda ishlatiladigan yoqilg'i moylash materiallari chiqindisi temir idishlarda saqlanib neft mahsulotlari omboriga topshirilishi bayon etilgan.

Ob'ektdan foydalanishda amalga oshiriladigan atrof muhit muhofazasiga oid chora-tadbir qisqacha ishlab chiqilgan.

Surxondaryo viloyati Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasi Davlat ekologik ekspertizasi Sariosiyo tumani "Lutfikor" mahallasi hududida tashkil etilgan Yangi O'zbekiston massivi ichki oqova suv kanalizatsiya va oqova suv tozalash inshooti qurilishining Atrof muxitga ta'siri to'g'risidagi bayonot loyihasi xujjatini **ruyobga chikarilishiga e'tiroz bildirmaydi**. Loyixada keltirib utilgan atrof-muxit muxofazasiga oid chora-tadbirlarni va Davlat ekologik ekspertizasi tomonidan bildirilgan kuyidagi shartlarni bajarilishi majburiy ekanligini kayd etadi.

-Ob'ektning qurilish ishlarida QMQ «Qurilish normalari va qoidalari» talablari asosida olib borilishi ta'minlansin.

-Ob'ekt faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.12.2019 yildagi 981-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi hududidagi suv ob'ektlarining suvni muhofaza qilish va sanitariya-muhofaza zonalarini belgilash tartibi to'g'risida Nizom talablariga rioya etilishi ta'minlansin;

-Suv tarmog'i tortilishida atrofidagi mavjud daraxtlarga shikastlantirmaslik, daraxtlarning o'suvchanlik darajasiga ta'sir ko'rsatmaslik hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 20 oktyabrdagi 290-sonli qarori va 17.01.2019 yildagi 43-sonli qarorlari talablariga rioya etilishi shart.

-Ob'ekt qurilishi davomida ajralib chiqadigan qattiq chiqindilarni tuman chiqindixonasiga chiqarilishi ta'minlansin.

-Ob'ektida Tabiatni muhofaza qilish qonun talablariga rioya qilgan holda faoliyat yuritilishi ta'minlansin.

- Ob'ektni foydalanishga qabul qilib olingunga qadar «Ekologik oqibatlar to'g'risidagi bayonot» loyihasi davlat ekologik ekspertizasiga taqdim etilishi shart.

- Davlat ekologik ekspertiza xulosasi loyihada ko'zda tutilgan faoliyatni ro'yobga chiqarish mumkinligiga berilgan bo'lib, amaldagi qonun doirasida mazkur ob'ekt uchun boshqa mutasaddi tashkilotlardan ruxsatnomalar olishni bekor qilmaydi va ularning o'rnini bosa olmaydi.

Ob'ekt qurilishi va faoliyati uchun xulosa shartlarining bajarilishi bilan yakuniy xisoblanadi. Davlat ekologik ekspertiza xulosasida kursatib utilgan shartlar va loyixadagi chora tadbirlar qurilish ishlari nixoyasiga yetkazilgunga kadar buyurtmachi tomonidan ijrosi ta'minlanishi shart.

Xulosa shartlarining bajarilish O'zbekiston Respublikasi «Ekologik ekspertiza to'g'risida»gi konunning 9,21-moddasi talablariga asosan majburiydir.

Ob'ekt faoliyatini nazorat qilish Sariosiyo tuman Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'limi zimmasiga yuklatiladi.

Boshqarma boshlig'i

R.Safarova

Bajardi: T.Abdullayev



[Handwritten signature in blue ink]

[Handwritten signature in blue ink]



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING
Q A R O R I**

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@adv.uz

2022 - yil 22 - iyul

427-8-0-Q/22


Surxondaryo viloyati hokimligi

**Sariosiyo tumani hududidagi “Uzun” davlat o‘rmon xo‘jaligiga tegishli yer maydonini
tuman hokimligi zaxirasiga qaytarish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 36 va 76-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 10 va 25-moddalariga asosan, O‘zbekiston Respublikasi O‘rmon xo‘jaligi Davlat qo‘mitasining 2022-yil 16-iyuldagi 01/19-3227-son xatini inobatga olib,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi O‘rmon xo‘jaligi Davlat qo‘mitasining 2022-yil 16-iyuldagi 01/19-3227-sonli xati qanoatlantirilsin.
2. Sariosiyo tumani hududidagi “Uzun” davlat o‘rmon xo‘jaligiga tegishli bo‘lgan 23q-konturdagi 1 gektar yer maydoni Sariosiyo tumani hokimligi zaxirasiga olinsin.
3. Yer maydoni tuman hokimligining zaxira yer fondiga qaytarib olinishi munosabati bilan “Uzun” davlat o‘rmon xo‘jaligi yer balansida 47124 gektar yer maydoni mavjud deb hisoblansin.
4. Davlat Kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (S.Shaymardanov) yer maydoni qaytarib olinishi munosabati bilan yer hisobotiga tegishli o‘zgartirish kiritilishini ta’minlasin.
5. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining rasmiy veb-sayti (surxondaryo.uz)da e’lon qilinsin.
6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosarlari A.Xidirov va U.Turapov zimmalariga yuklansin.



**Сариосиё туман Экология ва атроф-
мухитни муҳофиза қилиш бўлими**

МОНИТОРИНГ КУЗАТУВИ

Бизлар ким ушбу мониторинг кузатувида тузиб имзо чекувчилар Сариосиё туман Экология ва атроф-мухитни муҳофиза қилиш бўлими бош мухассислари Х.Рахматов, И.Пардаев ҳамда Саловат Сифат лойиҳа МЧЖ геодезия бўлими бошлиғи Ф.Абрайкулов иштирокида, Сариосиё туман "Лутфкор" маҳалласи ҳудудида ташкил этилаётган "Янги Ўзбекистон" массиви учун Сариосиё туман Афросиёб маҳалласи ҳудудида қурилиши режалаштирилган оқова сув тоzalаш иншооти қурилиши учун танланган ер майдонига Экологик мониторинг кузатуви ўтказилди ва қуйидагилар кузатилди. Оқова сув тоzalаш иншооти қурилиши учун танланган ер майдони жойлашув жихатидан қуйидаги томонлар билан чегараланган.

Шимолдан- Узун давлат ўрмон хўжалигига қарашли очик ер майдони билан тутанган.



Жанубдан- Узун давлат ўрмон хўжалигига қарашли очик ер майдони билан туташган.

Шарқдан- Узун давлат ўрмон хўжалигига қарашли очик ер майдони орқали аҳоли яшаш уйлари билан 250 метр.

Ғарбдан- Узун давлат ўрмон хўжалигига қарашли очик ер майдони орқали Тўпалант дарёси билан 250 метр.

Қурилиш ишлари замонавий архитектура қойдаларига риоя қилган ҳолда қурилиш ишлари олиб борилади. Қурилиш ишлари ер майдонида қурилиш ишларига ҳалақит берадиган меваги ва манзарали дарахтлар мавжуд эмас. Атмосфера ҳавосига ифлослантирувчи моддалар ишлаб чиқарилмайди. Обектдан чиқадиган чиқиндилар, чиқинди саклаш жойига вақтинчалик олиб чиқиб қўйилади, олиб чиқиб кетиш учун "Тоza-хўдуд" ДУК туман филиали билан шартнома асосида олиб чиқилади. Қурилиш лойиҳа ҳужжатлари учун атроф мухитга таъсири туғрисида баёнот лойиҳаси ишлаб чиқилиб Вилоят Экология ва атроф мухитни муҳофиза қилиш бoshқармасидан давлат Экологик экспертизаси ҳулосаси олингани Саловат Сифат лойиҳа МЧЖ геодезия бўлими бошлиғи Ф.Абрайкуловга тушунтириб ўтилди.

Ушбу мониторинг кузатувида имзолувчилар

 **Х.Рахматов**
 **И.Пардаев**
 **Ф.Абрайкулов**